

Karimova Madina

Boshlang'ich ta'lim va sport fakulteti Kechgi guruh talabasi

TOSHKENT 2023

Ona tilimiz sofligi yo'lida fidokor bo'laylik!

O'zbek tili turkiy tillar oilasiga mansub bo'lib, hozirgi kunda ushbu til Yer yuzi aholisining qariyb 50 million aholisi uchun asosiy muloqot vositasidir. Shunday ekan, tilimizning mavqeyiga qaratiladigan e'tibor ertangi avlodning kelajagi haqida qayg'urishimizning muhim asosi hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, mamlakatimizda o'zbek tilining davlat tili sifatidagi mavqeyi va nufuzini oshirish, jamiyatning barcha sohalarida faol qo'llanilishiga erishish, yosh avlodni ona tilimizga hurmat va sadoqat ruhida tarbiyalash borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Mustaqillik davri tarixiga nazar soladigan bo'lsak, tilga e'tibor, uning mavqeyini qonuniy jihatdan mustahkamlab qo'yish mustaqillikka erishishning dastlabki qadamlaridir desak mubolag'a bo'lmaydi. Davlat tilini izchil joriy etish jarayonini takomillashtirish va lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga mukammal o'tishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasining 1989-yil 21-oktabrda «O'zbekiston Respublikasining davlat tili haqida»gi Qonuni qabul qilindi va O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tili deb e'lon qilindi. Qonun bilan O'zbek tilining O'zbekiston Respublikasi hududida davlat tili sifatida amal qilishining huquqiy asoslari ushbu Qonun va boshqa qonunlar bilan belgilab beriladi. Aynan ana shu tarixiy hujjatga binoan o'zbek tili mustahkam huquqiy asos va yuksak maqomga ega bo'ldi. Binobarin, 1953-yilda YUNESKO tashkiloti ekspertlari "davlat tili" va "rasmiy til" tushunchalarini farqlashni taklif etgan. Unga ko'ra Davlat tili - siyosiy, ijtimoiy va madaniy sohalarida ma'lum bir davlatda integratsiya (birlashtiruvchi) vazifasini amalga oshiradigan, shuningdek ushbu davlatning ramzi sanaladigan tildir. Rasmiy til – davlat boshqaruvi, qonunchilik, sud jarayoni tilidir. 1993-yil 2-sentabrda esa O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Bugungi kunda bu ishlarning tadrijiy davomi sifatida lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etishni yanada takomillashtirish bo'yicha amaldagi qonun hamda hukumat qarorlari yanada mustahkamlanmoqda.

O'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini tubdan oshirish, unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat, ulug' ajdodlarimizning boy merosiga vorislik ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to'laqonli joriy etishni ta'minlash maqsadida 2019-yil 21-oktabrda O'zbekiston Respublikasining "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5850-

son Farmoni qabul qilindi. Ushbu Farmon bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tuzilmasida xodimlarining umumiy cheklangan soni 9 ta shtat birligidan iborat Davlat tilini rivojlantirish departamenti tashkil etildi, barcha davlat organlarida davlat tilida ish yuritish shart qilib qo'yildi. Davlat organlarida rahbarning ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va davlat tilida ish yuritishni rivojlantirish bo'yicha maslahatchi lavozimi joriy qilindi.

O'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini tubdan oshirish, unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to'laqonli joriy etishni ta'minlash, O'zbekistondagi millat va elatlarning tillarini saqlash va rivojlantirish, davlat tili sifatida o'zbek tilini o'rganish uchun shart-sharoitlar yaratish, o'zbek tili va til siyosatini rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo'nalish va vazifalarini hamda istiqboldagi bosqichlarini belgilash maqsadida 2020-yil 20-oktabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6084-son Farmoni bilan 2020-2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi, 2020-2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasini 2020-2022 yillarda amalga oshirish dasturi, 2020-2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari tasdiqlandi. 2020-yil 10-aprelda esa Davlatimiz rahbari tomonidan "O'zbek tili bayrami kunini belgilash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni imzolani, 21-oktabr O'zbek tili bayrami kuni etib belgilandi. Davlatimiz rahbarining Birlashgan Millatlar Tashkiloti anjumanida jahon hamjamiyatiga qarata tarixda birinchi marta hammani birday to'lqinlantirgan, O'zbekiston g'ururini yuksakka ko'targan tarixiy nutqini o'z ona tilimizda so'zladi. Ma'lumk, taniqli olim German Vamberi "Abulg'oziy Bahodirxonning ko'pgina ishlari Boburni xotirga tushiradi, jahon uning "Shajarai turk" nomli tarixiy asari uchun minnatdordir", deb yozgandi o'zining "Buxoro yoxud Movaraunnahr tarixi" asarida. Bunda olim Bobur bilan Abulg'oziyning el-yurtini obod va ozod ko'rish ishtiyoqida astoydil harakat qilgan ikki davlat arbobi sifatidagi o'xshash jihatlarini, ayni paytda, ularning tengi yo'q ijod namunalarini nazarda tutgan. Buning boisi juda qadim voqea va hodisalar haqidagi ma'lumotlar, yozma manbalar deyarli saqlanib qolmaganligida, mavjudlari esa asosan inson ruhiyati, aqlu idroki ilohiyot bilan uyg'unlashib, unga bir irmoq singari qo'shilib ketishidadir. Eng muhimi, bu afsonalarni kim qanday tushunishida emas, balki ular ilm koni, hikmat xazinasini ekanligidadir. Shu nuqtayi nazardan, Davlatimiz rahbarining o'zbek tiliga qaratgan e'tibor, hurmati, uning mavqeyini ko'tarishga qo'shgan hissasi uchun Yangi O'zbekiston tarixi undan minnatdordir degim keladi.

Xullas, ushbu davr o'zbek tili taraqqiyoti yo'lida "ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon"ga aylandi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Bular albatta, «Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari» degan ezgu g'oya negizida amalga oshirildi.

Davlatimiz rahbari tomonidan sohani rivojlantirishning huquqiy jihatini ta'minlanishiga alohida e'tibor bergan bo'lsalar, bu hujjatlarda belgilangan ishlarni bajarish Innovatsion rivojlanish vazirligi oldiga katta vazifalarni qo'ydi. Mazkur vazifalarni hal etish maqsadida Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari loyihalarini shakllantirish va monitoring qilishning butunlay yangi samarali tizimi ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi. Bugungi kungacha ushbu tanlovning 34 turi e'lon qilingan bo'lsa, u tanlovlarda o'zbek tili va adabiyotini tadqiq etish masalalariga ham salmoqli o'rin ajratilgan.

E'lon qilingan tanlovlarga topshirilgan loyihalar o'zining ijobiy xulosasini olib, o'zbek tilining jamiyatdagi va xalqaro miqyosdagi mavqeyi hamda nufuzini oshirish, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida davlat tilining to'laqonli joriy etilishi bo'yicha mavjud muammolarning ilmiy yechimini ta'minlash maqsadida hozirgi kunda ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti hamda O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti olimlari tomonidan qator loyihalar bajarilmoqda.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilayotgan "O'zbek tilida neyming: me'yoriy-huquqiy asoslarini yaratish" mavzusidagi amaliy loyiha doirasida ishlab chiqarish, savdo obyektlari, kompaniya, firma, mahsulotlarga nom qo'yish jarayonini yengillashtirish, milliy an'analarimiz va mentalitetimizga yot nomlar berilishining oldini olish, "Davlat tili haqida"gi Qonun ijrosini ta'minlash yuzasidan uslubiy ko'rsatmalar ishlab chiqilib, nomlar zaxirasi yaratildi. Universitetda "O'zbekcha nomlash laboratoriyasi" hamda internet tarmog'ida tadbirkorlar va ishlab chiqaruvchilar uchun uznom.uz sayti faoliyati yo'lga qo'yildi. Ushbu sayt orqali tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi kishilarga firma, korxonalar, savdo obyektlari, ishlab chiqargan mahsulotlari uchun milliy nomlar taqdim etilmoqda. Mazkur xizmat turi orqali nom yaratish jarayonida o'zbek tili me'yorlarining buzilishi bilan bog'liq holatlarga chek qo'yiladi. Zero, joriy yilning 21-oktabr kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining 30 yilligiga bag'ishlangan ma'ruzasida «jamoat joylarida, ko'chalarda, binolar peshtoqida toponimik belgilar, turli lavha va reklamalar ko'pincha xorijiy tillarda, ma'naviyatimizga yot mazmun va shakllarda aks ettirilayotganini» qayd etar ekan, «Ona tilimiz - milliy ma'naviyatimizning bitmas-tuganmas bulog'idir. Shunday ekan, unga munosib hurmat va ehtirom ko'rsatish barchamizning nafaqat vazifamiz, balki muqaddas insoniy burchimiz», - deb ta'kidladi. Mazkur oliygohda bajarilayotgan "O'zbek tilidan ingliz tiliga badiiy asarlarni tarjima qilish uchun elektron lug'at yaratish" mavzusidagi innovatsion loyiha natijasida o'zbek adabiyoti namunalarini ingliz tiliga badiiy tarjima qilish sifatini keskin oshiradigan o'zbek-ingliz badiiy tarjima lug'atini yaratiladi, o'zbek va ingliz tillarida inson qiyofasi, fe'l-atvori, tabiat tasviriga oid badiiy tasvirlarni o'z ichiga olgan rasmiy elektron poetik lug'at ishlab chiqiladi.

Mazkur elektron lug'at ijod namunalari leksikasini to'liq qamrab olishi va tasvirlar orqali aks ettiradi va o'z internet sahifasiga ega bo'ladi.

Shuningdek, Innovatsion rivojlanish vazirligi o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish, o'zbek tili va adabiyoti bo'yicha bajariladigan ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbek tilini rivojlantirish jamg'armasi xodimlari bilan hamkorlikda ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi sifatida umumiy qiymati 4,4 mlrd. so'm bo'lgan tematik mavzular shakllantirildi. Mazkur tanlov o'zbek tilining jamiyatdagi va xalqaro miqyosdagi mavqeyi hamda nufuzini oshirish, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida davlat tilining to'laqonli joriy etilishi bo'yicha mavjud muammolarning ilmiy yechimini ta'minlash, davlat tilini rivojlantirishga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida amalga oshiriladi.

Tanlovga vazirlik va idoralar, hukumat tashkilotlari, ilmiy-tadqiqot institutlari, oliy ta'lim muassasalaridan jami 28 ta ilmiy loyihalar taqdim etildi. Dastlabki texnik ekspertiza natijalariga ko'ra ilmiy ahamiyati yuqori, o'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini tubdan oshirish, unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to'laqonli joriy etishni ta'minlashga qaratilgan 15 ta ilmiy loyihalar bugungi kunda vazirlik huzuridagi "Filologiya, psixologiya, pedagogika fanlari" bo'yicha Ilmiy-texnik kengash tomonidan ilmiy ekspertizadan o'tkazilmoqda. Ta'kidlash joiz, tanlovda "jadid.uz" elektron platformasini yaratish" innovatsion, "O'zbek tilining milliy korpusini yaratish", "O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishning metodik ta'minoti bo'yicha elektron platforma yaratish", "Yangi avlod o'quv lug'atlari va ularning mobil ilovalarini yaratish" amaliy loyihalar mavzulari e'lon qilindi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 30-sentabr kuni O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan ziyolilarga qilgan murojaatida jadidchilik harakati, shaxslari haqida to'xtaldi va «mamlakatimizda Uchinchi Renessansni XX asrda ma'rifatparvar jadid bobolarimiz amalga oshirishlari mumkin edi», degan fikrni aytib o'tdi. Menimcha ham, tarixiy vaziyat imkon berganida edi, uyg'onish inqilobi amalga oshgan bo'lar edi. Buning izohini yana Prezident so'zlari bilan aytadigan bo'lsak, «bu fidoyi va jonkuyar zotlar butun umrlarini milliy uyg'onish g'oyasiga bag'ishlab, o'lkani jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, millatimizni g'aflat botqog'idan qutqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etdilar. Shu yo'lda ular o'zlarining aziz jonlarini ham qurbon qildilar».

Istiqlol, ozodlik, erkinlik uchun qilgan qilgan fidokorligi, shu bilan bir qatorda ularning «milliy ta'lim va tarbiya tizimi»ni yaratishdagi hissasi uchun Turkiston jadidchiligining yirik namoyondalari bo'lgan Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy va Munavvarqori Abdurashidxonov «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan mukofotlandi. Vazirlik tomonidan e'lon qilingan "jadid.uz" elektron platformasini yaratish" mavzusi bo'yicha bajariladigan jadidchilik harakati, adabiyoti va

dramaturgiyasi, jadidlarning milliy til va imlo masalalariga munosabati keng yoritilgan elektron platforma yaratish bo'yicha innovatsion loyihaning dolzarbligi ham aynan ushbu so'zlarning mazmun mohiyati bilan belgilanadi. Ilmiy-tadqiqot natijasida jadidchilik harakati, jadid adabiyoti va dramaturgiyasiga oid manbalar, tadqiqotlar o'rganiladi, tahlil qilinadi, jadidchilik harakati zaminida maydonga kelgan o'zbek matbuotida chop etilgan manbalar joriy imloga o'tkaziladi. Bu jarayonda, xususan, jadid matbuoti rivojlangan bir pallada – "Oyina", "Inqilob", "Haqiqat", "Maorif va o'qituvchi" jurnallari, "Sadoyi Turkiston", "Ishtirokiyun", "Turkiston", "Qizil O'zbekiston", "Mehnatkashlar tovushi", "Farg'ona", "Zarafshon", "Buxoro axbori" kabi gazetalarida bosilgan adabiy maqolalar, o'zbek adabiy tilining shakllanishi yuzasidan yozilgan manbalarning mazmun-mohiyati o'rganib chiqiladi.

Albatta, bu bilan o'zbek jadid davriy matbuotida nashr qilingan manbalar joriy imloga o'tkazilib, ularning elektron bazasi yaratiladi, jadidchilik davriga tegishli badiiy, adabiy-ilmiy, lingvistik, ilmiy-tarixiy muammolarga ilmiy-tadqiqot natijasida oydinlik kiritiladi. Eng quvonarlisi, milliy til hamda imloga doir manbalarning izohli bibliografiyasi tuziladi. Biz filologiya fakultetida o'qiyotgan davrda jadidchilik harakati haqida bunday ma'lumotlar olish, o'qish u yoqda tursin, bu haqida tasavvurga ham ega emasdik. Lekin ushbu loyihani bajarish asnosida jadidchilik davri adabiyoti, milliy til va imlo masalalarining izohli bibliografiyasi, ilmiy tadqiqotlar va tabdil qilingan manbalar oliy o'quv yurtlari filologiya va jurnalistika ta'lim yo'nalishlari o'quv jarayonida hamda o'quv qo'llanma va darsliklar yaratishda amaliy jihatdan foyda beradi, jadidchilik davriga oid tabdil qilingan manbalar asli bilan birgalikda maxsus internet tarmog'iga joylashtiriladi. Yakuni mahsulot sifatida jadidchilik harakati bilan bog'liq barcha voqea-hodisalar, nashr ishlari, o'sha davr tarixi, til va adabiyot tarixida jadidchilarning o'rnini o'zida aks ettirgan manbalarning elektron platformasi yaratiladi.

Milliy korpus milliy til xazinasini demakdir. Undan lingvist, leksikograf, kompyuter lingvistlari, dasturchi, muharrir, tarjimon, jurnalist, noshirlar, olim, o'qituvchi, ta'lim oluvchilar va boshqa har qanday soha mutaxassisi keng foydalanadi. Foydalanishda deyarli kasbiy tabaqalanishga yo'l qo'ymaydigan til korpuslari barcha soha vakillarini birday qiziqtirishi tabiiy. Ayniqsa, ona tili va chet tillarni o'qitish hamda o'rganish borasida korpuslarning o'rne beqiyos. Bugun dunyo miqyosida til o'rgatish tizimi korpuslarga yo'naltirilayotgani ham fikrimiz dalilidir. Shuning uchun ta'lim, sheva matnlari, poetik matnlar, og'zaki, ilmiy, rasmiy matnlar korpuslari kabi qator mikrokorpuslarning tuzilayotgani e'tiborga molik. Biroq o'zbek tili korpusini yaratish ishlari hanuz ortga surib kelinmoqda edi. Vazirlik tomonidan e'lon qilingan tanlovda aynan shu masalaning ilmiy yechimi va yakuni aniq mahsulotga qaratilgan "O'zbek tilining milliy korpusini yaratish" mavzusida amaliy loyiha mavzusi berildi.

2020-yil 20-oktabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6084-son Farmonida davlat tilining sofligini saqlash,

uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish sohasida lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida «O'zbekiston milliy qomusi» jildlarini nashr etishni bosqichma-bosqich ko'paytirib borish, 2020-yilda o'zbek tilining lug'at boyligini oshiruvchi 15 ta lingvistik, sohaviy-terminologik, izohli lug'atlar yaratish belgilab qo'yilganligidan kelib chiqib, e'lon qilinayotgan tanlovlardagi mavzular qatoridan "Yangi avlod o'quv lug'atlari va ularning mobil ilovalarini yaratish" amaliy loyiha mavzusi ham o'rin olgan. Ushbu tadqiqot doirasida umumta'lim maktablarining 5-11-sinflari uchun "O'zbek tilining omonimlari o'quv lug'ati", "O'zbek tilining paronimlari o'quv lug'ati", "O'zbek tilining morfem o'quv lug'ati" uslubiy qo'llanmalari va o'quvchilarning mustaqil ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun yangi avlod o'quv lug'atlari va ularning mobil ilovalarini yaratish bo'yicha amaliy loyiha bajariladi.

Ilmiy-tadqiqot natijalari sifatida "O'zbek tilining omonimlari o'quv lug'ati" hamda uch qismdan iborat "O'zbek tilining paronimlari o'quv lug'ati" yaratiladi. Lug'atda omonimlar va paronimlar, uning mohiyati, yuzaga kelish omillari, tilda omonimlarni qo'llash bilan bog'liq jarayonlar haqida ma'lumotlar keltiriladi. "Lug'at" qismida esa o'quvchilar nutqiy kompetentsiyasi darajasiga mos ravishda o'zbek tilidagi omonimlar va paronimlar, ularning izohi beriladi. "Mashq va topshiriqlar" bo'limida o'quvchilarning omonimlarni nutqiy farqlash ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida interaktiv metodlar asosidagi mashq va topshiriqlar keltiriladi. Bunday kompleks o'quv lug'atlari oldin yaratilmaganligi bilan ushbu mavzu sohaning mutlaqo yangi jihatini to'ldirib beradi. Yaratilgan mobil ilovada ularni tekshirish imkoniyatlari hisobga olinadi. "O'zbek tilining morfem o'quv lug'ati" o'quvchilarda so'zni tarkibiy qismlarga to'g'ri ajratish imkoniyatini o'rgatuvchi lug'at bo'lib, so'z va uning mohiyati, turlanish va tuslanish xususiyatlarini farqlashga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari asosida so'zlarning asos va qo'shimchalarga ajratilgan lug'at bazasi ma'lumotlarni ilova etuvchi dasturiy ta'minot, Internet tarmog'ida onlayn rejimda ishlaydigan mahsulot – o'zbek tilining elektron morfem lug'ati yaratiladi.

Farmon bilan belgilab berilgan davlat tilining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga integratsiyalashuvini ta'minlash sohasida dasturiy mahsulotlarning o'zbekcha ilovalari va elektron lug'at dasturlarini yaratish, xorijliklar uchun o'zbek tilini o'rgatuvchi dasturlar yaratish vazifalari qo'yilgan edi. Tanlovlarimizda e'lon qilingan "O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishning metodik ta'minoti bo'yicha elektron platforma yaratish" amaliy loyiha mavzusi ham o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishning xalqaro standartlar talablariga mos metodik ta'minotining (til bilishning A1, A2, V1, V2 darajalari uchun darsliklar, lug'atlar, so'zlashgichlar, xrestomatiyalar) elektron platformasi yaratishga qaratilgan.

Loyihani bajarish asnosida ta'lim oluvchilarda o'zbek tilining boshlang'ich A1 darajasiga mos tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan darslik, ushbu darajaga mos lug'at minimumi (so'zlar, iboralar) taqdim etilgan lug'at yaratiladi, ta'lim oluvchilarda o'zbek tilining o'rta A2 darajasiga mos tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozish ko'nikmalarini

shakllantirishga yo'naltirilgan darslik, ushbu darajaga mos lug'at minimumi (so'zlar, iboralar) taqdim etilgan lug'at yaratiladi, ta'lim oluvchilarda o'zbek tilining sohaga yo'naltirilgan V1 darajasiga mos tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan darslik, ushbu darajaga mos lug'at minimumi (so'zlar, iboralar) taqdim etilgan lug'at yaratiladi, ta'lim oluvchilarda o'zbek tilining yuqori V2 darajasiga mos tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozish malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan darslik, ushbu darajaga mos lug'at minimumi (so'zlar, iboralar) taqdim etilgan lug'at yaratiladi, o'zbek tilining xorijiy til sifatida o'qitishning har bir darajasi mavzulariga mos o'zbek adabiyoti namunalari, ularni o'qib tushunish va qayta hikoyalash bo'yicha topshiriqlar jamlangan xrestomatiyalar yaratiladi. Natijada ta'lim oluvchilarning tinglab tushunishi va to'g'ri talaffuz qilish ko'nikmalarini shakllantirish uchun o'zbek tilining muloqot madaniyatini aks ettiruvchi so'zlashgichlar, vaziyatli dialoglar yozilgan audiodisklar to'plami yaratiladi, ta'lim oluvchilarning o'zbek xalqining turmush tarzi bilan yaqinlan tanishishlari uchun urf-odatlarimiz, milliy madaniy qadriyatlarimiz tasvirga tushirilgan videoroliklar ishlab chiqiladi, o'zbek tilining xorijiy til sifatida o'qitish bo'yicha yaratilgan metodik ta'minoti (darsliklar, lug'atlar, xrestomatiyalar, so'zlashgichlar audiodisklari va videoroliklar) elektron platformaga joylanadi va o'zbek tilini xorijliklarga o'qitishning onlayn o'quv kursi yaratiladi.

Shuningdek, Innovatsion rivojlanish vazirligi mamlakatimizda davlat tilini to'laqonli joriy etishni hamda lotin yozuviga asoslangan o'zbek tilidan to'liq foydalanishini ta'minlash maqsadida "Innovative Developers" (www.idev.uz) korxonasi bilan hamkorligida kirill yozuvidagi matnlarni lotin yozuviga o'girish imkonini beruvchi dasturiy ta'minot yaratildi. Bu dastur Word fayllarida ishlaydi hamda matnlarni xatosiz va formatini buzmasdan u yozuvdan bu yozuvga o'giradi.

Dasturiy ta'minot O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 24 avgustdagi «O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida»gi Qarori bilan tasdiqlangan imlo qoidalari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, mazkur dastur 2020-yil 21-oktabr sanasida nishonlangan «O'zbek tili bayrami kuni» munosabati bilan barcha vazirlik va idoralarga, tashkilot hamda hokimliklarga beg'araz taqdim etildi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad ona tilimizni mavqeyini oshirish, yurtimizda lotin yozuvidagi o'zbek tilini rivojlantirish, davlat tashkilotlari hamda fuqarolarimiz orasida foydalanishni keng targ'ib qilish va mavjud noqulayliklarga innovatsion yechim taklif etishdan iborat.

Vazirlik tomonidan nafaqat o'zbek tilini har tomonlama tadqiq etishga bag'ishlangan loyihalar mavzulari e'lon qilinadi, balki ko'p qirrali o'zbek adabiyoti, shuningdek, o'zbek tilining boshqa fan yo'nalishlari bilan yonma yon tarzda tadqiq etish masalasi ham dolzarb hisoblanadi. Masalan, bugungi kunda Namangan davlat universitetida bajarilayotgan "O'zbek folklorining veb sayti va multimedya mahsulotini yaratish" mavzusidagi amaliy loyiha oldiga qo'yilgan maqsad o'zbek folklorining tarixi, taraqqiyoti, bugungi kundagi milliy madaniyatimizda tutgan o'rnini

targ'ib etishga qaratilgan ilmiy to'plam, veb-sayt va IOS, Android platformalari uchun mobil ilova yaratishdan iboratdir. Entsiklopedik xususiyatga ega bo'lgan ushbu loyiha natijasida o'zbek folklori tarixi va taraqqiyotini bugungi kun talablari asosida targ'ib etishga qaratilgan materiallarni tadqiq etish va ular asosida ilmiy nashrlarni amalga oshiriladi,- o'zbek folklorining o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy tadqiqot, audio va video materiallari orqali namoyish etish vazifalari qo'yilgan. Loyiha jarayonida folklorning eng noyob durdonalarini veb-sayt orqali namoyish etish va mamlakatimizdagi ichki, tashqi turizm ishlariga ko'maklashish ishlarini olib boriladi, mustaqillik davrida ijod qilgan baxshilar, jirovlar, oqinlar, folklor ijrochilari faoliyatiga doir nashrlarni tayyorlash va ularni veb sayt, multimedia dasturlari orqali muntazam namoyish qilish, o'zbek folklorini targ'ib qilishga qaratilgan IOS va android platformalari uchun ilova dasturlari yaratish va ular orqali milliy madaniyatimizni keng targ'ib etish ishlarini tashkil qiladi.

O'zbek adabiyotining antologiya kabi mukammal mahsulot yaratishni maqsad qilib qo'ygan "O'zbek adabiyotining ko'p tilli (o'zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish" mavzusidagi amaliy loyiha o'zbek adabiyotining tarixi, taraqqiyot davrlari, adabiy jarayonda kechayotgan o'zgarishlarni va jahon adabiyotida tutgan o'rnini targ'ib etishga bag'ishlangan ko'p tilli elektron platforma yaratishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

O'zbek va sharq tillarini uzviy ravishda tadqiq qilish, qadimgi qo'lyozmalarni yurtimizga qaytarish ishlarini tashkil etish maqsadida "Yevropa fondlarida saqlanayotgan, O'zbekistonda mavjud bo'lmagan turkiy qo'lyozmalarning ma'lumotlar bazasini va "Yevroturcologika.uz" elektron platformasini yaratish" innovatsion loyiha mavzusi e'lon qilingan. Loyiha yakunida Finlyandiya, Gollandiya, Fransiya, Italiya, Germaniya, Avstriya kabi Yevropa mamlakatlarida saqlanayotgan, lekin O'zbekistonda mavjud bo'lmagan turkiy qo'lyozmalarning ma'lumotlar bazasi shakllantiriladi, qo'lyozmalarning ilmiy tavsifi yaratiladi; - "Yevroturcologika.uz" veb-sayti yaratiladi, Yevropa fondlarida saqlanayotgan, O'zbekistonda mavjud bo'lmagan turkiy qo'lyozmalarning ma'lumotlar bazasi hamda "Yevroturcologika.uz" elektron platformasi yaratiladi.

Innovatsion rivojlanish vazirligi iqtidorli yosh olimlarning ilmiy-innovatsion faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi talablariga muvofiq yosh olimlarning amaliy va innovatsion loyihalari tanlovini e'lon qilgan edi. Tanlovning asosiy maqsadi - iqtidorli va iste'dodli yosh olimlarning ilmiy-tadqiqot faoliyati natijalari va tashabbuslarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, ularning ilmiy izlanishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib berish hamda salohiyatli yoshlarni ilm-fanga keng jalb etishdan iborat. Mazkur tanlovda o'zbek tilini boshqa fanlar bilan chambarchas tarzda tadqiqotini olib borish masalasiga misol sifatida e'lon qilingan "Matematika fanidan o'zbek, qoraqalpoq, rus va ingliz tillaridagi izohli lug'at onlaynplatformasini yaratish" innovatsion loyiha mavzusini keltirishimiz mumkin. Mazkur loyiha natijasida uzluksiz ta'lim tizimida matematika faniga oid

atamalarning o'zbek, qoraqalpoq, rus va ingliz tillaridagi izlohli lug'atlar bazasi yaratish, onlayn-platformaga bosqichma-bosqich ravishda matematika faniga oid atamalarning tushuntirishning animatsion (video) fayllari joylashtirib borish, matematika faniga oid atamalarning o'quv-uslubiy ta'minoti yaratish, onlayn-platformaning mobil ilovasi yaratish ko'zda tutilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Vatan, xalq kelajagi, o'zlikni anglash, o'z ona tilisining sofligini ta'minlash yo'lida ogoh, fidokor bo'lmaslik mumkin emas, bu har bir inson umrining asosiy mazmun va mohiyatini tashkil qiladi. Bu da'vatkor so'zlar hech vaqt o'z ahamiyatini yo'qotmaydi, chunki qadriyati mustahkam xalqimiz tilimizga e'tiborini hech ham susaytirmaydi. Hamma vaqt zamonaviy bo'lib yashayveradi. Vatanimiz mustaqilligini mustahkamlash borasida hali ko'p ishlar oldinda turgan hozirgi vaqtda bu shiorga qayta-qayta murojaat qilish maqsadga muvofiqdir.